O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

MAHMUD KOSHG‘ARIY – SINGARMONIZMNING BIRINCHI NAZARIYOTCHISI VA OVRUPOLIK OLIMLARNING SINGARMONIZM HAQIDAGI XATO QARASHLARI

MAHMUD KASHGARI – THE FIRST THEORIST OF VOWEL HARMONY AND THE ERRONEOUS VIEWS OF EUROPEAN SCHOLARS REGARDING VOWEL HARMONY

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/TFMC5518

Xudoyberdiyev Jo‘ra Ochilovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Masofaviy ta’lim kafedrasi mudiri,
jxudayberdi@mail.ru

Annotation. *One of the most debated topics in Uzbek linguistics is the issue of vowel harmony. This debate has persisted from the early 20th century to the present day; for over a century, linguists have failed to reach a consensus on the matter. During the debates on vowel harmony in the 1920s, prominent Jadids put forward highly accurate and well-founded views, and the majority of intellectuals reached a consensus. Consequently, their perspectives were adopted as the basis for decisions at a congress held in Samarkand in 1929. However, under the pressure of Bolshevik ideology, vowel harmony was removed from the Uzbek literary language in 1934, and three letters representing vowel sounds were eliminated from the alphabet.*

However, debates regarding vowel harmony continue to this day. Various viewpoints have been put forward in these spirited discussions; while some are based on concrete evidence, others lack scientific substantiation. This study examines the perspective of E. Umarov – who has published several articles on vowel harmony in the Uzbek literary language – regarding the vowel harmony found in the “Diwan Lughat al-Turk”.

In a number of his works, E. Umarov has expressed views regarding the artificial introduction of vowel harmony into the Uzbek literary language by Russian scholars, as well as the number of vowel sounds in Uzbek and the incorrect interpretations surrounding their classification. Expanding on his ideas about vowel harmony, Umarov has put forward the view that this phenomenon is

absent from the language of “Devonu Lug‘ati-t-Turk” – one of the ancient written monuments of the Turkic peoples.

In fact, the Turkic texts in the “Dīwān Lughāt al-Turk” are written based on the principle of vowel harmony. In the work, Mahmud al-Kashgari also records his theoretical views regarding vowel harmony.

Some Russian scholars, however, have made a gross error by comparing vowel harmony in Turkic languages with stress in Indo-European languages.

Keywords: *Synharmonism, debate, Uzbek literary language, “Diwan Lughat al-Turk”, text, Schleicher.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida eng ko‘p bahs-munozaraga sabab bo‘lgan mavzulardan biri singarmonizm masalasidir. Bu bahs XX yuzyillikning boshlaridan hozirgacha davom etib kelmoqda, yuz yildan oshdiki, singarmonizm haqida tilshunoslar bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. XX yuzyillikning 20-yillarida singarmonizm yuzasidan bo‘lgan munozaralarda buyuk jadidlar tomonidan juda to‘g‘ri, asosli qarashlar bildirilgan. Ziyolilarning aksariyati bir to‘xtamga kelishgan. Natijada, 1929-yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan qurultoyda ularning qarashlari asos sifatida qabul qilingan. Bolsheviklar mafkurasi va tazyiqining ostida 1934-yilda o‘zbek adabiy tilidan singarmonizm hamda alifbodan unli tovushlarni bildiradigan uchta harf chiqarilgan.

Lekin singarmonizm to‘g‘risidagi bahslar hozirgacha davom etib kelmoqda. Bu qizg‘in bahslarda turlu qarashlar ilgari surilgan. Ularning ayrimlari aniq dalillar asosidagi fikrlar bo‘lsa, ba’zilari ilmiy jihatdan asoslanmagan qarashlardir. Ushbu ishda o‘zbek adabiy tilidagi singarmonizm haqida bir necha maqolalar chop ettirgan E.Umarovning “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi singarmonizmga munosabati xususida to‘xtalib o‘tiladi.

E.Umarov singarmonizm o‘zbek adabiy tiliga sun’iy ravishda kiritilgani, rus olimlari tomonidan joriy etilgani, o‘zbek tilidagi unli tovushlar miqdori, ularni tavsiflashdagi noto‘g‘ri talqinlar haqida fikrlarni qator ishlarida bayon qilgan [Умаров, 1991, 26-28; Shu muallif, 1994, 77-80, Shu muallif, 1997, 76-78, Shu muallif, 2000 йил 25 январ; Shu muallif, 2005, 94-97, Shu muallif, 2009, 83-84]. Olim “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilgan “Kim haq...?” nomli maqolasida shunday yozadi: “Biz ko‘p yillar davomida ota-bobolarimiz yozib qoldirgan merosga bepisand qaradik. Ular qoldirgan ilmiy maqola, risolalarni o‘qimadik. Eng achinarlisi shuki, 20-30-yillarda yashagan tilshunos olimlarimiz asarlariga ham e’tibor bermadik. Natijada, o‘zbek tili rus tili va yevropo

tilshunosligi ta’sirida rivojlandi. Ana shunday ta’sir natijasida rus va yevropo tillaridagi qoidalar to‘g‘ri kelsa ham, to‘g‘ri kelmasa ham o‘zbek tiliga yopishtirildi. Ana shunday qoidalardan biri – singarmonizmdir” [Умаров, 1997, 76-78]. E.Umarovning o‘zbek adabiy tilidagi singarmonizm, unli tovushlar miqdori va ularning qo‘llanishi haqidagi fikrlari mutaxassislar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi. Aksincha, olim qarashlarining to‘g‘ri emasligi haqida munosabatlar bildirildi [Нурмонов, 1997, 74-77; Yusuf 2008, 8-15, 18-22; Сафаров, 2005, 90-94].

“Devonu lug‘atit turk” asarida singarmonizm yo‘q degan fikr va unga munosabat. E.Umarov singarmonizm haqidagi fikrlarini davom ettirib, bu hodisa turkiy xalqlarning qadimiy yozuv yodgorliklaridan biri “Devonu lug‘ati-t-turk” asari tilida ham mavjud emas, degan qarashni ilgari surdi [Умаров, 1989]. Bu esa mantiqan singarmonizm hodisasi, umuman, turkiy tillar tarixida mavjud bo‘lmagan, degan tushunchani anglatadi. Turkologiyaga, xususan turk xalqlari tillaridagi singarmonizm hodisasiga bag‘ishlan tadqiqotlarda esa bunday fikr uchramaydi.

“Milliy tiklanish” gazetasining 1999-yil 20-yanvar sonida Ergash Umarovning fikrlariga munosabat bildirildi. Shu maqoladan ayrim ko‘chirmalar keltirishni lozim topdik:

“Bu satrlarni yozishimga Mahmud Koshg‘ariy tilidan bitgan: “Mahmud Koshg‘ariy: iltimos, asarimni to‘g‘ri izohlanglar” (“Milliy tiklanish”, 1.12.1989.) maqolangiz sabab bo‘ldi…

Birinchi gapingizda M.Koshg‘ariyni “Devonu lug‘otit turk” asarimda, hali turkiy til qoidalari shakllanmagan bir paytda kelajak avlod o‘n birinchi asrdagi turkiy so‘zlarni to‘g‘ri o‘qib, to‘g‘ri yozishlari uchun qo‘limdan kelgancha harakat qildim”, deb gapirtirgansiz. Birinchidan, “Devon” “kelajak avlod... turkiy so‘zlarni to‘g‘ri o‘qib, to‘g‘ri yozishlari uchun” emas, balki o‘sha vaqtda turkiy tilni arab tili vositasida o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallab yozilgan edi. Ikkinchidan, “Devon”ning biror sahifasida “turkiy til qoidalari shakllanmagan” degan fikr aslo uchramaydi. O‘z qaddimiz va qadriyatlarimiz tiklanayotgan ushbu kunlarda bunday fikrlarda sal ehtiyotkorroq bo‘lib yondoshmaylikmi? Mantiqan o‘ylab ko‘raylik, agar ma’lum bir til bo‘lsa, unda tovushlar, so‘zlar, gaplar bo‘lishi aniq. Toshvushlar birikib so‘zlarni, so‘zlar so‘z birikmalarini, so‘zlar yoki so‘z birikmalari o‘z navbatida gaplarni tashkil qilishi ham ma’lum. Xo‘sh, bu birikishlar tilning qandaydir bir ichki qonun-qoidalari asosida ro‘y bermaydimi? M.Koshg‘ariyning o‘zi “Devon”da shunday yozadi: “turklarning

tilida qo‘llanilib kelingan she’rlardan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlardan, maqollaridan keltirdim”.

Ergash aka, endi shu she’rlarni, maqollarni qoidalari shakllanmagan yoki qonun-qoidalari bo‘lmagan tilda yozilgan deb bo‘ladimi?! Aslida til qoidalari yaratilmaydi, tildagi mavjud dalillar asosida umumlashtiriladi, aniqlashtiriladi, xolos. XX asrda o‘zgalar tomonidan yaratilgan til qoidalarini tilimizga tatbiq qilingani, bu tovush tizimiga, so‘z tanlash va qo‘llash kabi bir qancha sohalarga salbiy ta’sir qilgani ko‘pchilik qatori uzoq yillardan beri o‘zbek tili tarixi bilan shug‘ullanib kelayotgan Sizdek olimga ham shubhasiz ma’lum edi.

Yana Koshg‘ariy bo‘lib shunday so‘zlarni aytasiz: “Men o‘z asarimda singarmonizm, tanglay garmoniyasi haqida ham yozmaganman. Singarmonizm nima ekanligini tushunmayman ham. Ularni menga nisbat berishingiz insofdan emas... men yozmagan narsani Mahmud Koshg‘ariy yozgan deb menga tuhmat qilmanglar... bu gunohi azim”.

To‘g‘ri, M.Koshg‘ariy bu so‘z singormanizmga bo‘ysunadi, bu so‘z bo‘ysunmaydi, deb yozmagan. Lekin “Devon”da hodisaga, ya’ni tovushlarning bir-biriga moslashib, uyg‘unlashib kelishiga rioya qilmaydigan so‘zlar soni qancha?! Siz … o‘zbek tilshunoslariga “sizlar mening asarimni noto‘g‘ri izohlab, xato sharhlab yozmagan narsani yozgan deb biringiz fan arbobi, ikkinchingiz fan doktori, uchinchingiz fan nomzodi bo‘ldingiz. Ayrimlaringiz xalqaro mukofot sovrindori bo‘ldingiz. Natija ko‘rib turganingizdek qayg‘uli, yozgan aksar ishlaringiz noto‘g‘ri”, deb malomatomuz xulosalar bildirasiz. Mayli, o‘zbek tilshunoslarining ishlarini qo‘ya turaylik. Lekin turkiy tilshunoslik tarixi bilan shug‘ullangan boshqa olimlar ham “Devon”dagi so‘zlarning singarmonizmga bo‘ysunishini ilmiy asosda isbotlashgan-ku! Sizning bu xususdagi fikrlaringiz esa hali ilmiy isbotini topmagan. Mabodo, bu qarashlaringizni dalillar asosida ilmiy jamoatchilikka ma’qul qila olsangiz edi, Siz yigirmanchi asr turkiy tilshunosligida katta kashfiyot yaratgan bo‘lardingiz...” [Milliy tiklanish, 1999-yil 20-yanvar].

Agar Mahmud Koshg‘ariyning **“Devonu lug‘ati-t-turk”** asaridagi turkiy matnlar ko‘zdan kechirilsa, ularning aksariyatida singarmonizm hodisasi aks etganligini kuzatish mumkin.

Mahmud Koshg‘ariyning singarmonizmga oid qarashlari. Qomusiy olim **“Devonu lug‘ati-t-turk”dagi** turkiy matnlarni singarmonizmga rioya qilgan holda bitgan bo‘lishiga qaramasdan, asar**ning bir necha o‘rinlarida turk xalqlari tillaridagi** singarmonizmga oid o‘z qarashlarini, kuzatishlarini ham bayon etgan. Asar I jildining 15 ta [Кошғарий, I, 1960], II jildning 6 ta

[Кошғарий, II, 1961], III jildning 18 ta [Кошғарий, III, 1963], jami 39 ta maqolasida turk xalqlari tillaridagi singarmonizm haqida ma’lumot bergan. Olim qayd etilgan lug‘at maqolalarida “yumshoq talaffuz etiladigan alif bilan”, “yumshoq talaffuz etiladigan **“ÿ”** bilan”, “yumshoq **k/g** harfi qo‘llanadi”, “yumshoq so‘zlarga **-lik** qo‘shish”, “**د -d ب -p, ت -t, ج -ch, ک -k** kabi to‘rtta qattiq harflar”, “yumshoq talaffuz qilinadigan so‘zlarda **ماک (mäk)** qo‘shib yasaladi”, “qattiq talaffuz qilinuvchi so‘zlarda **غ g‘** – bundan boshqa yumshoq so‘zlarda **ک - g** qo‘shiladi” kabi so‘z va birikmalarni qo‘llagan. Bu dalillar XI yuzyillikda tildagi tovushlar uyg‘unligi qonuniyatining matnda ifodalanishini va tovushlar qattiq, qalin, yumshoq, ingichka deb aniq ajratilganini bildiradi.

Olim bu kabi tushunchalarni lug‘at maqolalarida berishda ba’zan bir misol keltirish bilan cheklanadi, ayrimlarida esa tildagi tovushlar uyg‘unlashuvi hodisasini atroflicha ochib berishga, o‘zining nazariy qarashlarini bildirishga harakat qilganligini ko‘rsatadi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”da **الف** alif bilan ifodalangan qattiq talaffuz qilingan **at** (ot) [I, 70-bet]; **och** (mashhur bir shahar oti) [I, 71-bet]; **av** (buyuruvchining buyrug‘ini pisand qilmaslik, bo‘ysunmaslik o‘rnida qo‘llanuvchi “a?!”, “nima deyapsiz?”, mazmunidagi yordamchi so‘z) [I, 75-bet]; **aran** (otxona) [I, 106-bet]; qalin talaffuz qilingan **aba** (ayiq) [I, 113-bet] hamda yumshoq talaffuz qilingan (**ət** – (et, go‘sht) [I, 70-bet]; **öz** (yog‘) [I, 80-bet]) kabi so‘zlar qayd etilgan.

و qattiq talaffuz qilingan **tor** (qush va baliq tutiladigan to‘r, ov to‘ri) [III, 133-bet]; **buz** (muz) [III, 134-bet]; **toz** (to‘zon) [III, 134-bet]; **kök** (osmon) [III, 146-bet]; **boj** (xalq, qabila, zurriyot, nasl) **[**III, 155-bet]; **to** (bulamochda undan pishirilgan taomning bir xilidir) [III, 224-bet]), qalin talaffuz qilinadigan **tosh** (qush, tilla yoki kumushdan yasalib, kamar uchiga taqiladigan halqa) **[**III, 138-bet] va yumshoq talaffuz qilingan **ÿlÿg** (hissa; qismat; nasiba) **[**I, 102-bet]; **kög** (she’rning vazni, o‘lchovi) [III, 144-bet]; ingichka talaffuz qilinadigan **tösh** (to‘sh) [III, 138-bet] kabi so‘zlar misol tariqasida keltirilgan.

E’tiborli jihati shundaki, XIX, XX va hatto XXI yuzyillikda ham ayrim olimlar tomonidan “singarmonizm” va “unlilar uyg‘unligi” terminlari bir xil ma’noda qo‘llanadi. Singarmonizm faqat unli tovushlarda mavjud degan qarash ham uzoq yillar davomida qo‘llanib kelindi. Mahmud Koshg‘ariy matnda ham unli, ham undosh tovushlarni, qattiq, qalin, yumshoq, ingichka shaklda bo‘lib kelishini aniq dalillar bilan isbotlab bergan, misollar keltirgan. Olim bir necha izohlaridan tashqari, singarmonizm nazariyasiga oid qarashlarini ham bildirgan. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan bildirilgan nazariy qarashlarning ko‘pchiligi

bugungi tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasiga oid tadqiqotlarda hozirgacha amal qilib kelayotganligini kuzatish mumkin. Qolaversa, singarmonizmga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyatida mazkur hodisani dastlab A.Shleyxer tomonidan o‘rganilganligi qayd etiladi.

Mahmud Koshg‘ariy ba’zi o‘rinlarda muayyan harf, masalan ک kof harfi ham qattiq, ham yumshoq tovushni bildirishini ko‘rsatgan, ularning ifodalanish o‘rinlarini, farqli jihatlarini bayon etgan: “Otlarga qo‘shilgan qattiq ک **k** ba’zan o‘rin otini bildiradi, ba’zan narsa qo‘yilgan joyni bildiradi va ba’zan masdar bo‘ladi. Bu uch holdan tashqari ک **k** egalik ma’nosini bildiradi. Masalan, yuqoridagi اکتلک ***ögätlik*** so‘zida ک **k** kelin-kuyovlarga xizmat qilish uchun tayinlangan shaxsni bildiradi. Bu o‘rinlarda **k** qattiqdir. Ega ma’nosini bildirgan so‘zlarda ک **k** yumshoq, bo‘sh tovushdir, ya’ni **g** kabi jaranglidir. اکتلک ***ögätlik*** so‘zi xizmatchisi bor, xizmatchiga ega ma’nosida keladi. Bu hamma so‘zlar uchun umumiy qoidadir” [Кошғарий, I, 1960, 167].

Olim fe’lning o‘tgan zamon shaklidagi o‘zak oxirida kelgan tovushga qarab, qo‘shimchadagi tovush o‘zgarishi haqida shunday fikrlarini bayon etadi: “Shuni bilish zarurkim, fe’lning o‘tgan zamon shakli hamma fe’llarda (fe’lning o‘zak va negizlariga) دی **-di** qo‘shilib yasaladi, hech yerda o‘zgarmaydi. O‘tgan zamon fe’lini yasovchi د **-d** ب **-p,** ت **-t,** چ **-ch,** ک **-k** kabi to‘rtta qattiq harflar bilan qo‘shilganda د **-d** ت **-t** ga almashadi. Chunonchi تبتی ***taptï*** – tepdi, تتی ***tuttï*** – oldi, قجتی ***qachtï*** – qochdi, جکتی ***chökti*** – cho‘kdi kabi. O‘zidan so‘nggi د **-d** ni ت **-t** ga aylantirishda **-q** ham **-k** ga o‘xshaydi. Chunonchi ال منکا بقتی ***ol mӛңä baqtï*** kabi.

Bu **d** ni **t** ga almashtirish u harflarning maxrajlari qattiq bo‘lgani uchundir. Bularning asli **d** dir, yuqoridagi harflarga qo‘shilganda **-t** ravishda talaffuz qilish yaxshiroqdir. Har qanday fe’l boblarida va fe’l turlarida ham asos shudir” [Кошғарий, II, 1961, 41-42].

Mahmud Koshg‘ariyning fikriga ko‘ra, turkiy tillarda бир ҳарф икки marta takrorlanmaydi. Faqat **t** harfi bilan tugagan fe’llardagina paydo bo‘ladi. Bunday holat ismlarda juda kam uchraydi. O‘tgan zamon fe’l shakllarida bir harf qayta takrorlangani uchun olim uni muzaof deb ataydi. Koshg‘ariy ӛr راراغتنىينتى **urag‘utnï jӛnätti** – odam xotinini tug‘dirdi gapidagi **jӛnätti** so‘zida takrorlangan **t** harfining birinchisi o‘zak oxiridagi harf ekanligini, ikkinchisi esa o‘tgan zamon fe’lining belgisi د **-d** ekanligini qayd etadi. Bu د **-d** qattiq harf yonida kelganligi sababli unga singib, bu ham ت **-t** ga aylangani natijasida bir harf ikki qayta takrorlanishi yuzaga kelganini bildiradi [Кошғарий, II, 1963, 368-369].

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining boshqa bir o‘rnida tovushlarning o‘zaro moslashib kelishiga “Nutqni yoqimli qilish uchun oxiri qattiq harflar bilan bitgan o‘zaklardan yasalgan o‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasidagi **d** ni **t** ga almashtirish to‘g‘riroqdir”, deb munosabat bildirilgan [Кошғарий, II, 1963, 12].

Mahmud Koshg‘ariy **“Devonu lug‘ati-t-turk”** turk tilini o‘rganuvchi arablar uchun mo‘ljallab tuzilganligi uchun ham tildagi tovush hodisalarini misollar asosida atroflicha tushuntirishga harakat qilgan. Masalan, fe’l o‘zagida **-q, -g‘** harflari bo‘lgan yoki qattiq talaffuz qilinadigan so‘zlarda **ماق (maq),** o‘zagida **-k** harfi bo‘lgan yoki yumshoq talaffuz qilinadigan so‘zlarda **ماک (mäk)** qo‘shib yasalishi haqida fikr yuritib, qayd etilgan har bir harf ishtirokidagi so‘zlarga shunday misollar keltiradi: “**ق li so‘zlar misoli: ال یاقردی *ol ja qurdï*** gapidagi ***qurdï*** fe’lining masdari **قرماق *qurmaq,*** kelasi zamon shakli **قرار *qurar*** bo‘ladi. Bu masdar **ماق** qo‘shib yasalgan, chunki so‘z o‘zagida **ق -q** bordir. **غ li so‘zga misol: السوتسغدی *ol sÿt sag‘dï*** gapidagi ***sag‘dï*** fe’lining masdari (**ماق maq** bilan) **سغماق *sag‘maq***dir. Chunki bu fe’l o‘zagida **غ -g‘** harfi bor. ***(*سغار سغماق *sag‘ar, sag‘maq).*** Qattiq talafuzli so‘zlarga misol: **آربردی *ärbardï*** gapidagi **بردی *bardï*** fe’lining masdari ham **برماق *barmaq***dir**,** chunki bu fe’l qattiq talaffuz qilinuvchi so‘zlardandir. ***(* باررربرماق *barïr, barmaq)* تردی *turdï*** ham shunday, ***(*تررترماق *turur, turmaq)* ک **li so‘zga misol: کادی *kÿldï*** fe’lining masdari **کاماک *kÿlmäk***dir. Yumshoq ya’ni **ک g** li so‘zlar ham qattiq **ک -k** li kabidir. Chunonchi **المنی‌اکدی *ol mÿni ögdi*** gapidagi ***ögdi*** fe’lining masdari ham **اکماک *ögmäk***dir. So‘zning boshida yumshoq **ک g** kelganda ham masdar qattiq **ک k** bilan ishlatiladi. Chunonchi **ارتلمسردی *är tÿlim sÿrdï*** gapidagi **سردی *sÿrdï*** fe’lining masdari **سرماک *sÿrmäk***dir, chunki bu so‘z yumshoq talaffuz qilinuvchi so‘zlardandir, **بک انی سردی *bÿg anï sÿrdi* ارہیک‌تردی *är bitik tÿrdi*** – odam xatni bukladi, o‘radi, gapidagi **تردی *tÿrdi*** fe’li ham yumshoq talaffuz qilinuvchi so‘zlardan bo‘lgani uchun uning masdari ham **ترماک *tÿrmäk***dir. **ال پرماق تردی *ol jarmaq tÿrdi*** - u tanga – pul to‘pladi gapidagi **تردی *tÿrdi*** fe’li ham yumshoq talaffuz qilinuvchi **ترر *tÿrär*** fe’lidir. Buning masdari ham yumshoq **ترماک *tÿrmäk*** shaklidir… Bu qoida hamma fe’llarda, har qanday fe’l boblarida bir xilda qo‘llanuvchi qat’iy qoidadir. Biror fe’l turi bundan chetga chiqmaydi. Masdarda **-maq** yoki **-mäq** qo‘llashda uning tarkibida **ق** yoki **ک** borligiga e’tibor berilib, anashu misollarga qiyos qilib bilinadi…

Masdarlarning yana bir turi sof fe’l shakliga ishlovchi shaxs ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha qo‘shish bilan yasaladi. Bu xil masdar shakllari otlar turkumidagi so‘zlar kabi ot o‘rnida qo‘llanadi. Bular fe’l o‘zagiga qalin so‘zlarda

-qi, -g‘i, yumshoq tovushli so‘zlarda **-ki, -gi** qo‘shimchalarining qo‘shilishi bilan yasaladi” [Кошғарий, II, 1963, 46-47].

Mahmud Koshg‘ariy ko‘p turklar buyruq fe’li tarkibida **ق -q** tovushi kelsa yoki umuman qattiq talaffuzli so‘zlar oxirida **غ -g‘** kelganda **غل -g‘il** (**برغل *barg‘il,* ترغل *turg‘il***), yumshoq so‘zlarda va o‘zakda **ک -k** harfi bo‘lgan so‘zlarda **كل -kil, گل -gil** affiksi (**كركل *kirgil,* تركل *tərgil***) qo‘shilishini misollar bilan ko‘rsatgan [Кошғарий, II, 1963, 49-50].

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida aytish mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi turkiy tildagi matnlar singarmonizm qonuniyatiga rioya qilgan holda bitilgan. Olim asarda singarmonizmga oid nazariy qarashlarini ko‘plab misollar yordamida ilmiy jihatdan asoslab bergan. Matndagi tovushlar qattiqlik va yumshiqlik yoki qalinlik va ingichkalik asosida bir-biriga moslashib kelgan.

Ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi dastlabki qarashlari va bir xato nazariya haqida. Yevropo tilshunosligida singarmonizm hodisasi agglyutinativ tillarda uchraydi degan qarash dastlab A.Shleyxer tomonidan bildirilgan [Schleicher, 1850, 63]. Qozon tilshunoslik maktabining asoschisi, polyak olimi Boduen de Kurtene A.Shleyxer fikrlarini davom ettirib, singarmonizmga xos xususiyatni yanada aniqlashtirishga harakat qilgan. U unlilar uyg‘unligida o‘zakdagi unli tovush keyingi bo‘g‘inlar unlilarini sifat jihatdan belgilashi, hal qilishini keyingi bo‘g‘inlar unlilari oldingi bo‘g‘inlar unlilarga moslashib kelishini qayd etgan.

I.A.Boduen de Kurtene unlilar uyg‘unligi ko‘pchilik turon tillarida, shuningdek, ural-oltoy va ugor-fin tillarida xos xususiyat deb qaragan. Uningcha, “unlilar uyg‘unligi” deb ataluvchi hodisa turon (ya’ni ural-oltoy va fin-ugor) tillarining aksariyat qismi uchun xos xususiyat. Biroq unlilar uyg‘unligi ushbu til oilalarining ayrimlari tillarida uchramaydi, ushbu qonuniyat o‘tkinchi hodisa sifatida kuzatiladiganlari ham bor. Xususan, zamonaviy eston tilida unlilar uyg‘unligi kuzatilmaydi, uning izlari faqat ayrim eston shevalaridagina saqlanib qolgan [Бодуэн-де-Куртенэ, II, 1876, 322-323].

Boduen de Kurtenening fikricha, turon tillari so‘zlaridagi unlilar uyg‘unligi so‘z va qo‘shimchalarni mustahkam bog‘lab turadi. Olim ushbu fikrini yanada aniqlashtirish uchun turkiy tillardagi singarmonizm hodisasini hind-yevropo tillaridagi urg‘u bilan qiyoslagan. Turkiy tillardagi singarmonizm hodisasining vazifasini hind-yevropo tillarida urgu‘ bajaradi, degan qarashni ilgari surgan: “Turon tillarida unlilar uyg‘unligi, ta’bir joiz bo‘lsa, bo‘g‘inlarni so‘zlarga

birlashtiruvchi yoki bog‘lovchi sement vazifasini o‘taydi. Hind-yevropa tillarida esa bo‘g‘inlarni so‘zlarga bog‘lashdagi bu vazifani asosan urg‘u bajaradi” [Бодуэн-де-Куртенэ, 1876, 322-323].

I.A.Boduen de Kurtene “1876-77-o’quv yili uchun ma’ruzalarning batafsil dasturi”da (1877) ham unlilar uyg‘unligi tushunchasini urg‘u bilan bog‘laydi. U singarmonizm va urg‘uning o‘zaro bog‘liqligiga diqqatni qaratadi. Olim bir tomondan urg‘u bo‘g‘inlarni faqat bo‘g‘in sifatida bir butun qilib bog‘laydi, boshqa tomondan, unlilar uyg‘unligi so‘zdagi bo‘g‘inlarni fonetik jihatdan emas, balki morfologik (o‘zaklar qo‘shimchalari sifatida) tomondan ham bog‘lab turadi deb alohida ta’kidlaydi: “Turon tillarida unlilar garmoniyasi so‘zda bog‘inlarni bir-biriga yopishtiruvchi yoki bog‘lovchi sement desa ham bo‘ladi... Yevropa tillarida esa bo‘g‘inlarni so‘zlarga birlashtirish vazifasini avvalo urg‘u bajaradi. Bu tillarda ayrim bo‘g‘inlar va tovushlar birikmasi, o‘zaklar, affikslar va umuman pristavka, tugallanma kabilar ularning birortasiga xos urg‘u bilan birlashmaguncha so‘z to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. Turon tillarida esa, ayrim bo‘g‘inlarni va komplekslarni (tovush birikmalarini), agar ular biror iborada unlilar garmoniyasiga bo‘ysunmay o‘ziga xos unlini saqlagan bo‘lsa, ular so‘z qismi deb hisoblanishi kerak. Agar ular unlilar garmoniyasi qonuniga muvofiq bog‘lanib ketgan bo‘lsa, u holda bir nechta bir bo‘g‘inli so‘z o‘rniga bitta ko‘p bo‘g‘inli so‘z hosil qiladi” [Бодуэн де Куртенэ, I, 1963, 103-104].

I.A.Boduen de Kurtene yomonidan ilgari surilgan bu qarashini rus tilshunosligida ko‘plab olimlar davom ettirishdi. Olimning ushbu qarashi dastlab mashhur turkolog, rus turkologiyasining asoschisi V.V.Radlov tomonidan to‘la qo‘llab-quvvatlandi, turkiy tillar dalillari asosida yana ham aniqlik kiritishga harakat qilindi: “turkiy tillarda urg‘uning morfologik rolga ega emasligini; faqat ohangdorlik vositasi ekanligini, qator bo‘g‘inlardagi monotonlilikni – birxil ohanglilikni – yo‘qotib, eshitilishi yoqimli bo‘lgan turlilik tug‘dirish, undagi qismlarning – o‘zak, qo‘shimchalarning munosabatini yanada ortiq chizib ko‘rsatish uchun xizmat etishni; buning uchun turkiy tillarda har bir so‘zga “yopishtirilgan” bo‘g‘inlar kompleksi boshida va oxirida urg‘uli bo‘g‘inlar bilan ifodalanishini, ularning birinchisi (o‘zagi) yarim ton ko‘tariluvchi, oxirgi bo‘g‘in toni so‘nuvchanligini” [Radloff, 1882, 50-51] ko‘rsatib bergandek bo‘ldi.

Mo‘g‘ulshunos olim B.Y.Vladimirtsov ham singarmonizm yoki unlilar uyg‘unligida so‘zdagi barcha unli tovushlarning xususiyati birinchi bo‘g‘indagi urg‘uli unli tomonidan belgilanishini qayd etadi [Владимирцов, 1929, 115]. Olim singarmonizm so‘zda urg‘u bilan bir xil vazifani bajaradi, degan qarashni davom

ettirgan: “Unlilar uyg‘unligi so‘zlarni xuddi urg‘u kabi tavsiflaydi va belgilaydi” (Сингармонизм характеризует и определяет слова наравне с ударением) [Владимирцов, 1929, 118].

Boduen de Kurtene tomonidan bildirilgan bu qarash keyingi davr tilshunoslari tomonidan ham e’tirof etildi. Masalan, V.A.Vinogradov “Singarmonizm va so‘z fonologiyasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida singarmonizmning ko‘pqirrali funksional yuki uni urg‘u kabi universial prozodik qurilma bilan tenglashtirishi haqida fikr bildirgan: “Singarmoniyaning ko‘p qirrali funksional roli uni urg‘u kabi universal prosodik vosita bilan bir qatorga qo‘yadi” [Виноградов, 1966, 19].

Demak, I.A.Boduen de Kurtene, V.V.Radlov, B.Y.Vladimirtsov, V.A.Binogradov kabi olimlar turk tillaridagi singarmonizm hodisasini hind-yevropo tillaridagi urg‘u bilan bir xil vazifani bajaradi, degan qarashni asoslashga harakat qilishgan.

O‘zbek adabiy tilidagi singarmonizm hodisasi bo‘yicha olib borilgan ayrim tadqiqotlarda ham bunday qarash davom ettirildi, o‘zbek tilidagi singarmonizm hodisasi vazifasini urg‘u bajarayotganligi qayd etildi, bu esa o‘zbek tilidan singarmonizmning chiqib ketishiga asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etildi.

O‘zbek adabiy tilidagi unli tovushlar, singarmonizm masalalarini tadqiq qilgan A.Mahmudov V.V.Radlovning singarmonizm, urg‘u bir-biri bilan ajralmasdir, degan xulosasi turkiy tillar uchun juda muhim xulosa, deb baholaydi. F.E.Korsh, B.Y.Vladimirtsev, V.A.Bogoroditskiy, Y.D.Polivanov, A.N.Kononov, A.G‘ulomov, A.M.Sherbak kabi turkologlarning turkiy tillarda singarmonizm bilan urg‘uning o‘zaro munosabati haqidagi qarashlari V.V.Radlovning qarashlariga yaqin turishini qayd etgan [Махмудов, 1980].

A.Mahmudovning fikriga ko‘ra, o‘zbek tili dialektlaridagi singarmonizm hodisasi bilan boshqa turkiy tillardagi singarmonizm bir-biridan farqlanadi, Boshqa turkiy tillarda so‘zning fonetik butunligini singarmonizm ta’minlaydi, lekin urg‘uning ishtiroki deyarli sezilmaydi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida singarmonizmning ilgarigi ahamiyati yo‘q, so‘zning fonetik birligini ta’minlashda uning hech qanday o‘rni qolmagan. O‘zbek tilidagi so‘z birligini asosan urg‘u ta’minlaydi. A.Mahmudov bu jarayun haqidagi kuzatishlarini shunday bayon qiladi: “O‘zbek tili dialektlaridagi singarmonizm hodisasini tatar, ozarbayjon, qirg‘iz, qozoq, turkman va boshqa turkiy tillardagi singarmonizm hodisasi bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ularda so‘zning fonetik birligini singarmonistik tuzilish yuzaga keltiradi, lekin bunda urg‘u so‘zning fonetik butunligini

markazlashtirish kuchi zaif bo‘lganligidan so‘z butunligini saqlay olmaydi…

O‘zbek adabiy tilida, hozirgi davr turkiy tillardan farqli o‘laroq, yangi fonetik hodisalar yuzaga kelmoqda va shakllanmoqda. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida singarmonizm o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qotdi va so‘zning fonetik birligini ta’minlashda uning hech qanday ahamiyati qolmadi. Endilikda o‘zbek tilidagi so‘z birligini ta’minlovchi o‘zbek adabiy tiliga xos urg‘u prosodik jihatdan qudratliroq omilga aylandi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi urg‘uning xarakteri so‘zning fonologik tuzilishidagi muhim xususiyatlarni belgilaydi. Uning vazifasi delimitativlik bilangina cheklanmaydi, balki so‘zning birligini ta’minlashda va so‘zlarni bir-biridan prosodik farqini ko‘rsatuvchi differensial belgi bo‘lib ham xizmat qiladi. Bu xususiyatlarning taraqqiy eta borishida rus tilining ham roli bor. Shunday qilib, hozirgi zamon o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi bir yo‘la bajaradigan umumiy bir vazifa boshqa turkiy tillarda urg‘u bilan singarmonizm o‘rtasida bo‘lingan deb aytish mumkin” [Махмудов, 1980].

A.Mahmudovning ushbu fikrlari S.Otamirzaeva tomonidan davom ettirildi. Olima o‘zbek adabiy tilida tarixan mavjud bo‘lgan singarmonizm hodisasi vazifasini so‘z urg‘usi bajarib kelayotganligi haqida shunday yozadi: “O‘zbek tilida **o**unlisi paydo bo‘lishi (bu unli boshqa turkiy tillarda yo‘q), ayniqsa, so‘z urg‘usining taraqqiy qilishi, so‘zni tashkil qilish va bir so‘zni boshqasidan ajratib turish vazifasini o‘z zimmasiga olishi, natijasida shu vazifani bajarib kelgan singarmonizmga ehtiyoj qolmadi va u o‘zbek adabiy tilidan asta-sekinlik bilan sitilib chiqib ketdi. Bu jarayon hamon davom etmoqda… singarmonizm turkiy tillar uchun azaldan berilgan xislat edi. Takomillashish jarayonida o‘rnini so‘z urg‘usi egalladi. Singarmonizmning yemirilish alomatlari boshqa tillarda ham paydo bo‘ldi [Otamirzayeva, 1998, 30-31].

Hozirgacha yaratilgan tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasiga oid tadqiqotlarda singarmonizm hodisasi va so‘z urg‘usi atroflicha o‘rganilgan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Shu jihatdan olib qaraganda, singarmonizm bilan so‘z urg‘usi tilning boshqa-boshqa hodisalari ekanligi, ular bajaradigan vazifasi bir-biridan tubdan farq qilishi ham ma’lum. Urg‘u so‘zdagi bir bo‘g‘in tarkibidagi unli tovushga tushadi. Singarmonizm hodisasiga amal qiladigan so‘zda esa so‘z tarkibidagi barcha tovushlar, ya’ni ham unli tovushlar, ham undosh tovushlar birdek singarmonizm qonuniyatiga bo‘ysunishi kerak bo‘ladi.

Tildagi urg‘u va singarmonizm hodisalarining bunday farqlanishi I.A.Boduen de Kurtene, V.V.Radlov, B.Y.Vladimirtsov, V.A.Binogradov kabi rus olimlari va A.Mahmudov, S.Otamirzayeva va boshqa o‘zbek olimlari tomonidan ilgari surib kelingan fikrlarning ilmiy asoslanganiga shubha uyg‘otadi. Qolaversa, turkiy tillardagi singarmonizm hodisasining vazifasini hind-ovrupo tillarida urg‘u bajaradi, degan qarashni boshlab bergan Boduen de Kurtene o‘z fikri noto‘g‘ri ekanligini tan olgan.

Boduen de Kurtenening shogirdlaridan V.A.Bogoroditskiy uzoq yillar davomida turk xalqlari tillari, xususan tatar tili fonetikasi masalalarini tadqiq qildi, singarmonizmning xos xususiyatlarini chuqur o‘rgandi. Olim unlilar uyg‘unligi yoki singarmonizm turkiy tillarning eng xarakterli xususiyatlaridan biri ekanligini alohida ta’kidlagan. U uzoq yillik izlanishlari natijasida singarmonizm qo‘shimchalardagi unlilar sifatini o‘zakning unlilari tomonidan o‘ziga xos o‘zgartirish sifatida namoyon bo‘ladi, degan to‘xtamga kelgan. Olimning fikriga ko‘ra, “Bu xususiyat mazkur tillarning yana bir jihati bilan bog‘liq: hind-yevropa tillaridan farqli o‘laroq, ularda predloglar va prefikslar turkumi mavjud emas; buning o‘rniga, barcha qo‘shimcha morfologik elementlar o‘zakka muayyan tartibda biriktiriladi, natijada turkiy tillarda o‘zak doimo so‘zning boshida keladi” [Богородицкий, 1927, 3].

V.A.Bogoroditskiy turk xalqlari tillaridagi unlilar uyg‘unligidan tashqari boshqa til oilalaridagi singarmonizm qonunining o‘ziga xos xarakterli jihatlarini o‘rganishga harakat qildi. U fin-ugor tillariga mansub mari tilida ham unlilar uyg‘unligi mavjudligini aniqladi. Olim mari tilini ikki shevadan — sharqiy (o‘tloq) va g‘arbiy (tog‘) shevalaridan iborat deb, ularning bir-biridan farqli xususiyatlarini ko‘rsatib berdi. Olimning aniqlashicha, mari tilining g‘arbiy shevalarida unlilar uyg‘unligi palatal (til o‘rtasi) xususiyatga ega bo‘lsa, sharqiy shevalarda u palatallikning kamayishi bilan birga lablashuv (labializatsiya) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi; boshqacha aytganda, bu holat g‘arbiy sheva singarmonizmida lablashuvning, sharqiy sheva tizimida esa palatallikning yo‘qolishi taassurotini uyg‘otadi [Козин, 1941, 160].

B.A.Bogoroditskiy turon tillaridagi singarmonizm hodisasini hind-yevropa tillaridagi urg‘u bilan qiyoslagan I.A.Boduen de Kurtene fikriga qo‘shila olmayman, hind-yevropa tillari urg‘usini turon tillaridagi urg‘u bilan solishtirish kerak degan qarashni bildirdi. Olimning ushu fikri to‘g‘ri va asosli ekanligini I.A.Boduen de Kurtenening o‘zi e’tirof etib shunday yozadi: “Professor Bogoroditskiy quyidagi fikrni bildirganda mutlaqo haq: “Men Turon tillaridagi

unlilar uyg‘unligini hind-yevropa tillaridagi urg‘u bilan qiyoslagan professor I.A. Boduen de Kurtene bilan rozi bo‘la olmayman”, va u “hind-yevropa tillaridagi urg‘uni Turon tillaridagi urg‘u bilan taqqoslash lozim”, deb ta’kidlaydi” [Бодуэн де Куртенэ, II, 1963, 34] .

Turk tillaridagi singarmonizm vazifasini hind-yevropo tillaridagi urg‘u bajaradi, degan qarash I.A.Boduen de Kurtene tomonidan bildirilgan. V.V.Radlov, B.Y.Vladimirtsov, V.A.Binogradov kabi rus olimlari bu fikrni qo‘llab-quvvatlashgan. B.A.Bogoroditskiy bu qarash ilmiy jihatdan noto‘g‘ri ekanligini bildirgan. I.A.Boduen de Kurtene B.A.Bogoroditskiy e’tirozlarini tan olgan. A.Mahmudov, S.Otamirzayeva va boshqa o‘zbek olimlari o‘zbek adabiy tilidagi singarmonizm vazifasini urg‘u bajarmoqda, shu sababli o‘zbek adabiy tilidan singarmonizm chiqib ketdi degan qarashni uzoq yillar davomida asoslab berishga harakat qilishgan. Dalillar esa bu fikr ilmiy asosga ega emasligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

1. Mahmud Koshg‘ariyning **“Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi turkiy tildagi matnlar singarmonizm qonuniyati asosida bitilgan.**

2. Mahmud Koshg‘ari “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida singarmonizmga oid nazariy qarashlarini ko‘plab misollar yordamida ilmiy jihatdan asoslab bergan. Misollarda keltirilgan tovushlar qattiqlik va yumshoqlik yoki qalinlik va ingichkalik asosida bir-biriga moslashib kelishi masalasini birinchi marotaba Mahmud Koshg‘ariy tahlil qilgan va singarmonizm haqidagi nazariy qarashlarni boshlab bergan**.**

3. I.A.Boduen de Kurtene, V.V.Radlov, B.Y.Vladimirtsov, V.A.Binogradov kabi rus olimlari tomonidan turk tillaridagi singarmonizm vazifasini hind-yevropo tillaridagi urg‘u bajaradi, degan qarash ilmiy asosga ega emasligini XX yuzyillikning 20-yillarida B.A.Bogoroditskiy asoslab bergan. I.A.Boduen de Kurtene B.A.Bogoroditskiy e’tirozlarini tan olgan.

4. Rus olimlarining ilmiy adabiyotlarda qayd etib kelingan turk tillaridagi singarmonizm va hind-yevropo tillaridagi urg‘u qo‘llanishi jihatidan bir xil vazifani bajaradi, degan xulosani o‘zbek olimlaridan A.Mahmudov, S.Otamirzayeva va boshqalar o‘z tadqiqotlariga asos qilib olishgan hamda o‘zbek adabiy tilidagi singarmonizmning chiqib ketishiga eng asosiy sabablardan biri sifatida ko‘rsatishgani ilmiy asosga ega emas.

5. Yuqorida dalillar 1934-yilda o‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi noto‘g‘i bo‘lganligini isbotlaydigan muhim dalillardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Otamirzayeva S. “A” yumshoqmi yo qattiq..? “Fan va turmush”, 1998-yil 1-son,

2. Radloff W. Phonetik der nördlichen Türksprachen, Leipzig, 1882,

3. Schleicher A. Die Sprachen Europas in systematischer Uebersicht, Bonn, 1850, – C. 63.

4. Umarov E. Mahmud Koshg‘ariy: iltimos, asarimni to‘g‘ri izohlanglar. “Milliy tiklanish”, 1989-yil 1-yanvar

5. Yusuf B. Lug‘at ma’lumotlari doim ham ishonchli manbami?.. // Sog‘lom avlod uchun. 2008, № 10, –Б. 8-15, 18-22.

6. Богородицкий В.А. Законы сингармонизма в тюркских языках. Казань: Красный печатник, 1927.

7. Бодуэн де Куртенэ И. Подробная программа лекций в 1876-77 уч. году (1877) // Избранные труды по общему языкознанию. Т. 1. Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963.

8. Бодуэн де Куртенэ И. Избранные труды по общему языкознанию. Том II. Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963.

9. Бодуэн-де-Куртенэ И., Резья и резьяне, «Славянский сборник», III, Пб., 1876, – С. 322-323.

10. Виноградов В.А., Сингармонизм и фонология слова. Автореф. канд. диссерт., М., 1966,

11. Владимирцов Б.Я., Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халхаского наречия. Введение и фонетика, Л., 1929,

12. Козин С.А., Сокровенное сказание, I, М.— Л., 1941,

13. Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк), I том. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. –Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1960.

14. Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк), III том. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. –Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1963.

15. Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). II том. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. –Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1961.

16. Маҳмудов А. Тилда сингармонизм, урғу ва товуш системасининг ўзаро муносабати. Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. 4-сон.

17. Нурмонов А. Ўзбек тили унлиларининг фонологик белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, № 2. –Б. 74-77.

18. Сафаров М. Тилшуносликдаги бир баҳсли қараш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2005, № 5. –Б. 90-94.

19. Умаров Э. “Муҳокамат ул-луғатайн”да акс этган унлилар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1991, № 1-2. –Б. 26-28.

20. Умаров Э. Бобур бир фонетик ҳодиса ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2003, № 1.

21. Умаров Э. Ким ҳақ...? // Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, № 1. –Б. 76-78.

22. Умаров Э. Луғат маълумотлари – ишончли манба // Ўзбек тили ва адабиёти. 2005, № 5. –Б. 94-97.

23. Умаров Э. Маҳмуд Кошғарий: илтимос, асаримни тўғри изоҳланглар // Миллий тикланиш. 1989 йил 1 декабрь.

24. Умаров Э. Мумтоз ўзбек тилидаги тўрт “ў”нинг тақдири // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, № 6. –Б. 83-84.

25. Умаров Э. Сингармонизм нима? // Миллий тикланиш. 2000 йил 25 январ.

26. Умаров Э. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми? // Ўзбек тили ва адабиёти. 1994, № 4-5-6. –Б. 77-80.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**